

Published Date:- 18-10-2023

## **KASBIY FAOLIYATGA YO’NALTIRILGAN INGLIZ TILI O’QITISHDA SAMARALI YONDASHUVLAR**

Urunova Shaxlo Rafikovna

Andijon mashinasozlik instituti

[urunovashahlo23@gmail.com](mailto:urunovashahlo23@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasbga yo’naltirilgan ingliz tili o’qitishda samarali bo’lgan yondashuvlar, ularning o’ziga xos xususiyatlari va vazifalari tahlil qilingan. Inntegratsiyalashgan ko’nikmalar yondashuvi va kommunikativ yondashuvining nofilologik yo’nalishdagi talabalarda kasbiy kompetentlikni oshirishdagi ahamiyati ko’rsatib berilgan.

**Kalit so’zlar:** komptentlik, terminlar, inntegratsiya, muloqot, autentik materiallar.

**Annotation:** this article analyzes approaches, their specific characteristics and tasks that are effective in teaching professional-oriented English. The importance of the inntegrated skills approach and communicative approach in enhancing professional competence in students of a non-philological orientation has been demonstrated.

**Keywords:** competence, terms, inntegration, communication, authentic materials.

**Аннотация:** В данной статье анализируются подходы, их специфика и задачи, эффективные в профессионально-ориентированном преподавании английского языка. Показано значение подхода интегрированных навыков и коммуникативного подхода в повышении профессиональной компетентности у студентов нефилологического направления.

**Ключевые слова:** компетентность, термины, интеграция, общение, аутентичные материалы.

**Published Date:- 18-10-2023**

O‘qituvchi talabalarni matnlar bilan tanishtirganda matnlar bevosita mutaxassislik faniga aloqodor bo‘lishi, xamda shu matnlarda ishlatilgan yangi terminlarni matnlar ichida belgilab ko‘rsatib va shu terminlarni samarali o‘zlashtirishlari uchun mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu maqsad va vazifalarni xisobga olgan xolda, biz kasbga yo‘naltirilgan ingliz tilida terminlarni o‘qitishni xozirda chet tili o‘qitishda keng qo‘llanilayotgan integratsiyalashgan ko‘nikmalar yondashuvi (Integrated skills approach) va kommunikativ yondashuv (Communicative approach) tamoyillariga asoslanib olib bordik, va bu yondashuv terminlarni talabalaraga o‘qitish va ularni kommunikativ muloqotda ishlata olish ko‘nikmasini shakllantirishda muxim axamiyat kasb etishini isbotladik.

Integratsiyalashgan ko‘nikmalar yonashuvi (Integrated skills approach) tinglash, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘liqlikda shakllantirishni nazarda tutib, bu xozirda ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishda (EFL) yangi tendensiya bo‘lmoqda, va bu talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va kasbiy qobilyatini rivojlanirishda ingliz tilidan foydalanishida samarali bo‘lmoqda. Oksford R integratsiyalashagan ko‘nikmalar yondashuvi (Integrated skills approach) ning ikki xil yo‘nalishini ajratadi: 1) **Content based learning (CBL)** –soxaga asoslanib o‘rganish; 2) **Task based learning (TBL)**-mashq va topshiriqlarga asoslangan o‘rganish turi. Ushbu ikki xil o‘qitish yo‘nalishi xar birini aloxida qisqacha moxiyatini talqin qilib berishimiz maqsadga muvofiq deb o‘yladik [5,65].

**Content based learning (CBL)** - biror fanni o‘rganish orqali tilni o‘rganishga qaratilgan o‘qitish yo‘nalishi.CBL yangi bo‘lmasa-da, unga qiziqish ortdi, chunki u butun dunyo bo‘ylab ESP (English for specific purpose) dasturlarida juda samarali isbotlangan.

Content based learning (CBL) - bu shunday o‘qitish yo‘nalishi bo‘lib, bunda ikkinchi tilni o‘qitishda lingvistik yoki boshqa turdagি maqsadda emas, balki

**Published Date:- 18-10-2023**

talabalar qabul qiladigan kontent yoki ma'lumotlar asosida olib boriladi" [6, 125]. Boshqa so‘z bilan aytganda,CBL ta'limi bir vaqtning o‘zida tilni soxa bilan birgalikda paralel ravishda o‘rganish ko‘nikmalarini integratsiyasini o‘z ichiga oladi; bu yerda kontent odatda matematika, fan yoki ijtimoiy fanlar kabi akademik mavzuni anglatadi. Content based learning yondashuvida til fandagi kontentni o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Tilni o‘rganish maqsadlariga kontentni o‘rganish orqali erishiladi.

Bu ta'lim turining bir qator afzallikkleri xaqida J.Richard va T.Royerlar o‘z ishlarida ta'kidlab o‘tishgan. Unga ko‘ra Content based learning ta'lim turining quyidagi afzallikkleri bor:

- til o‘rganuvchi darsga yana xam qiziqishi va motivasiyasi oshadi
- bu ta'lim turi turli mavzularda keng ko‘lamdagi bilimlarni taklif qiladi
- u talabalarga matndan asosiy g‘oyalarni yozib olish, xulosa qilish va kerakli ma'lumotlarni ajratish kabi o‘rganish ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi
- xamkorlikda bajarish maxoratlarini rivojlantiradi [6, 128].

Integratsiyalashgan ko‘nikmalar yondashuvining ikinchi yo‘nalishi xisoblangan **Mashq va topshiriqlraga asoslangan ta'lim (Task based learning)** til o‘rganuvchilarga tilni turli mashqlar, o‘yinlar, muzokaralar orqali o‘rgatishni nazarda tutuvchi eng samarali yondashuvlardan biri xisoblanadi [6,132]. Olim N. Prabxu Mashq va topshiriqlraga asoslangan ta'lim (Task based learning) turini chet tili dars jarayonlariga olib kirish va talabalar mashqlar asosida tilni o‘rganishi yaxshi samara berishini isbotlagan [5, 78]. N.Prabxu “mashqni- talabalarning fikrlash faoliyati orqali berilgan ma'lumotdan xulosa olish va bu o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadigan faoliyat”, deb ta'rif beradi [5, 84]. Mashqlarga asoslangan ta'lim (Task based learning) o‘quvchilarga o‘qituvchilar rahbarligida tilni bilish darajasini oshirish uchun maqsadli tildan foydalanish imkoniyatini beradi. Mashqlarga asoslangan o‘rganishda o‘quvchi o‘zini vazifani bajarish uchun og‘zaki muloqot zarur bo‘lgan real kommunikativ vaziyatda xis qiladilar.Mashq-bu talabalrning

**Published Date:- 18-10-2023**

kommunikativ maqsadga erishish uchun tildan foydalanishga asoslangan faoliyat turidir [8,45].

Mashq va topshiriqlarga asoslangan yondashuv (TBL) ning quyidagi afzalliklari bor:

- 1) ko‘nikmalarini shakllantirishda tilni grammatik va fonetik jixatdan to‘g‘ri ishlatishda mashqlar samara beradi
- 2) talabalar o‘zining dastlabki til ko‘nikmalari va resurslaridan foydalanadilar,
- 3) talabalar mashq bajarishda tilning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishadilar, 4)talabalar faoliyat davomida muloqot qilishadi va hamkorlik qilishadi,
- 5) til talabalarning extiyojidan kelib chiqib o‘rgatiladi [7, 67].

Kommunikativ yondashuv (Communicative approach) ni qo‘llagan xolda chet tilini o‘rgatish ularda ushbu tilda kommunikativ kompetentlikni o‘siradi. Kommunikativ yondashuv (Communicative approach)dastlab 1960 va 1970 yillarda paydo bo‘lgan.Kommunikativ yondashuv-bu til o‘qitishning vositalari va yagona maqsadini o‘zaro aloqalari ustida qurilgan yondashuvdir. Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi o‘rganuvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishdir.Kommunikativ yondashuv quyidagi tamoyillarga egadir:

- o‘rganilayotgan tilda real kommunikativ sharoit, vaziyat yaratiladi
- o‘rganuvchilar o‘zлari bilgan bilimlarni sinab ko‘rish uchun imkoniyatlar yaratiladi
- chet tilida rovon va aniq muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratib beriladi
- gapishtish, tinglash, o‘qib tushunish va yozish ko‘nikmalarini integrativ bog‘liqlikda dars jarayoniga tadbiq qilinadi
- talabalr o‘zлari grammatik qoidalarni muloqotga olib kiradilar
- muloqot jarayonida talabalr tomonidan qilingan xar bir grammatik va fonetik xatolarni to‘g‘rilab bormaydi, chunki asosiy e’tibor kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga qaratiladi

**Published Date:- 18-10-2023**

Xulosa qilganda, yuqorida keltirilgan zamonaviy til o’qitish yondashuvlari til o’rgatish jarayonida samarali bo’lib, talabalarda kommunikativ muloqotni, shuningdek kasbiy layoqatni rivojlantirishda katta xizmat ko’rsatadi.O’quv mashg’ulotlarini tashkil qilishda til materialini berishda o’rinli yondashuvni tanlay olish va to’g’ri tashkillashtira olish katta axamiyatga egadir.

### **Foydalanilgan adabiyotar:**

1. Maksudova X.F Farmasevtika yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy layoqatlarini rivojlantirish-diss.p.f.d (PhD) darajasi uchun. UDK:378.091.3:811.111 O’zbekiston jaxon tillar universiteti-Tosh,2021-234 b
2. Iriskulov M.T. ESP til ko’nikmalarini rivojlantirish usullari // Filologiya masalalari ilmiy-metodik jurnal, 2017. №4. - B. 144-148
3. Лопатина Ю.В. Обучение студентов неязыкового вуза профессионально-ориентированному общению на английском языке: Дисс.канд.пед.наук.-Ярослав,2005. -176 с.
4. Oxford, R. Integrated skills in the ESL/EFL classroom. Washington DC, US: Maryland University, 2001.
5. Prabhu, N. Second Language Pedagogy. Oxford: Oxford University Press, 1987- p 160
6. Richards, J.,Rodgers, T. Approaches and Methods in Language Teaching. New York: Cambridge University Press, 2001- p 204
7. Simpson A. Task-Based Learning. Cambridge: Cambridge University Press, 2004
8. Willis, D., Willis, J. Doing Task-based Teaching. Oxford: Oxford University Press, 2013- p 294

**“O’ZBEKISTONDA GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G’OYALAR VA RIVOJLANISH YO’LLARI”**

**Published Date:- 18-10-2023**